Frazeologizmlar va ularning lingvistik tadqiqini masalasi

Muallif : Fozilova Gulshoda

Buxoro Xalqaro Universiteti 2- bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda frazeologizmlarning tadqiqi sohasida qilinayotgan va qilinishi kerak bo`lgan vazifalar atroflicha tahlil qilindi. Frazeologizmlar o`rganish va bugungi kunda sohani yanada rivojlantirish muhimligi o`rganildi. Frazeologizmlarni o`rganish metodologiyasini takomillashtirish zarurligi haqida fikr yuritildi

Kalit so`zlar:frazeologizmlar,semantika,stilistika,emotsionallik,barqaror birlik,idiomatizm, konnotativ til.

Kirish **.** O‘zbek tilshunosligi tarixida frazeologizmlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar xalqning tafakkuri, turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyatining yorqin ifodachisidir. Bugungi kunda frazeologizmlarni har tomonlama o‘rganish bo‘yicha ko‘pgina tadqiqot ishlari bajarilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, grammatik, semantik, stilistik, lingvokulturologik hamda boshqalar. Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq birlikdan tashkil topgan, tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, ko‘chma ma’no bildiruvchi, barqaror birikma sifatida tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Frazeologizmlar tilning lug‘aviy boyligini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra frazeologizmlarni tadqiq etish jarayonida ushbu birlikning turli jihatlari yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] qarorining bugungi kunda o`zbek tilini rivojlantirish va tildagi muammolarni bartaraf etishdagi roli juda katta hisoblanadi. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida, xususan, hikoyachilik janrida frazeologik birliklarning qo‘llanishi yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, ular orqali yozuvchilar zamonaviy ijtimoiy hayot voqealari, inson ruhiyati, milliy xarakter va ma’naviy muhitni yanada chuqurroq tasvirlamoqda. Shu bois zamonaviy hikoyalar tilidagi frazeologizmlarning lisoniy tahlilini amalga oshirish, ularning semantik-struktur xususiyatlarini aniqlash, uslubiy vazifasini belgilash hamda xalq tili bilan badiiy nutq o‘rtasidagi uzviy aloqani yoritish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, frazeologik birliklarning zamonaviy adabiy jarayonda qanday yangicha ma’no yuklamalarida, metaforik va konnotativ imkoniyatlarda qo‘llanayotganini o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Bu esa o‘zbek tili frazeologik tizimining boyishini, ularning adabiy uslubdagi semantik dinamikasini hamda yozuvchi individual uslubining shakllanishida tutgan o‘rnini ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi.

V.V.Vinogradovning frazeologik birliklar haqidagi ishlari natijasida ko‘plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, lug‘atlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi[2]. Keyingi yillarda frazeologizmlarni tadqiq etishning turli xil usullari paydo bo‘ldi. Bu narsa frazeologizmlarni o‘rganishning yanada jadallashishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug‘atini “idiomatizmlar”ni kiritgan edi. O‘sha paytlarda frazeologik birliklar chet el tilshunosligida ham, boshqa xalqlar tilshunosligida ham o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq frazeologizmlarning faqatgina tasnifiga e’tibor qaratilgan, xolos. Bu to‘g‘risida B.A.Larin o‘zining asarida shunday yozib qoldirgan: “Frazeologiya lingvistik soha sifatida hali e’tiborsiz taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda”. Y.D.Polivanov esa quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning alohida bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”. Keyinchalik yirik rus tilshunoslari frazeologiya sohasini mustaqil lingvistik fan sifatida ajratib ko‘rsata boshlashdi. Frazeologik

birliklarning ham amaliy ham nazariy jihatlarini ochib beruvchi ko‘plab tadqiqotlar qilindi, monografiyalar, maqolalar nashr etildi, frazeologik lug‘atlar tuzib chiqildi. N.M.Shanskiy, Y.A.Bistrova va T.Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan “Rus tilidagi 700 frazeologik ibora” lug‘ati frazeologizmlarni amaliy tomonlama o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. N.M. Shanskiy, O.S.Axmanova, V.L.Arxangiliskiy, Y.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, Y.Y.Avaliani, A.Bushuy kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarning tadqiqi masalasida samarali tadqiqotlar olib bordilar [3]. Dastlab bu soha o‘zbek tilshunosligida XX asrning 50-yillarida o‘rganila boshlangan deyiladi. Frazeologizmlar dastlab lug‘atshunoslikda qo‘llanilgan, hali ular alohida o‘rganilmagan. Keyinchalik olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiq qilinib, frazeologizmlar mustaqil soha bo‘lib shakllantirildi.[4] Bu jarayonda albatta, leksikografiya turtki bo‘lib xizmat qilgan. Shundan so‘ng olimlarimiz tomonidan mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirib frazeologik birliklarning grammatik, semantik, leksik xususiyatlariga bag‘ishlab bir qancha maqolalar, monografiya, o‘quv qo‘llanmalar yozildi. Jumladan, “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi o‘zlashgan frazeologik birliklar haqida” (1957), “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o‘zgarishi haqida” (1963), “Fe’l frazeologik birliklarda moslashuv” (1964), “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”, “Nutqimiz ko‘rki” (1970), kabi asarlari frazeologik birliklarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak , frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi, semantikasi, etimologiyasi, lug‘atlardagi o‘rni hamda til ichki tizimiga xos bo‘lgan shakllanish bosqichlari etarlicha darajada o‘rganilmagan. Frazeologik birliklarning tadqiqoti natijasida tilimizning lug`at boyligi ham ortib boradi.Nutqimizda stilistik, ekspressiv, emotsional bo`yoqlar ortib ifoda usuli ko`rkamlashadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

2 Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплин Избраннные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – С. 118-139.

3 Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. – М, 1956.256 – С.

4 Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 20